

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING  
TOSHKENT FILIALI**

**PO‘LATOV SARVAR MUSTAFOYEVICH**

**MEKSIKA BANGIDEVONASI (*DATURA INNOXIA* MILL)NING O‘SISHI,  
RIVOJLANISHI VA XOM ASHYOSINING FITOKIMYOVIY TARKIBIGA  
MINERAL O‘G‘ITLARNING TA‘SIRI (TOSHKENT VILOYATI SHAROITIDA)**

**06.03.03 – Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi  
va agrofarmoekologiyasi**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on agricultural  
sciences**

**Po‘latov Sarvar Mustafoyevich**

Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill)ning o‘sishi, rivojlanishi va xom  
ashyosining fitokimyoviy tarkibiga mineral o‘g‘itlarning ta’siri (Toshkent viloyati  
sharoitida) ..... 3

**Пулатов Сарвар Мустафоевич**

Влияние минеральных удобрений на рост, развитие и фитохимический состав сырья  
показатели Мексиканского дурмана (*Datura innoxia* Mill) (в условиях Ташкентской  
области) ..... 21

**Pulatov Sarvar Mustafoyevich**

The effect of mineral fertilizers on the growth, development and phytochemical  
composition of Mexican datura (*Datura innoxia* Mill) (under the conditions of  
Tashkent region) ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**Spisok o‘publikovannix rabot**

List of published works ..... 45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING  
TOSHKENT FILIALI**

**PO‘LATOV SARVAR MUSTAFOYEVICH**

**MEKSIKA BANGIDEVONASI (*DATURA INNOXIA* MILL)NING O‘SISHI,  
RIVOJLANISHI VA XOM ASHYOSINING FITOKIMYOVIY TARKIBIGA  
O‘G‘ITLARNING TA‘SIRI (TOSHKENT VILOYATI SHAROITIDA)**

**06.03.03 – Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi  
va agrofarmoekologiyasi**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Qx1235 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.svmitf.uz](http://www.svmitf.uz) hamda [www.tdau.uz](http://www.tdau.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xalikov Baxodir Meylikovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Xamroyeva Dilovar Tolibdjonovna**  
Biologiya fanlari doktori

**Xofizov Baxriddin Turdiyevich**  
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil 8-yanvar soat 14<sup>00</sup>dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: [tuag-info@edu.uz](mailto:tuag-info@edu.uz). Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (549915-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazi binosi. Tel.: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 25-dekabr kuni tarqatildi.  
(2023-yil 18-dekabrda 1-raqamli reyestr bayonnomasi).



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** “Bugungi kunda dunyoda tabiiy sharoitda o‘sadigan yuksak o‘simliklarning soni 374 mingdan ortiq turni tashkil etib, shulardan 1200 ga yaqini dorivor o‘simlik sifatida farmakologik va biokimyoviy xususiyatlari o‘rganilgan”<sup>1</sup>. Xitoy, Hindiston, Kanada va AQSH kabi davlatlar yovvoyi holda o‘sayotgan dorivor va ziravor o‘simliklarni saqlash, madaniy plantatsiya usulida yetishtirish borasida katta tajriba va salmoqqa ega. Xususan, “Xitoyning dorivor o‘simliklar va dori vositalari o‘rtacha yillik tovar aylanmasi 100 milliard dollarni, eksport hajmi 1 milliard dollarni, import esa 274 million dollarni tashkil etadi”<sup>2</sup>. Ushbu davlatlarda dorivor o‘simliklarni yetishtirishda mineral o‘g‘itlardan to‘g‘ri foydalanilgan holda farmasevtika sanoatini xom ashyo bilan ta‘minlashga erishilmoqda.

Dunyo tabobatida tabiiy dori vositalariga bo‘lgan talabni ortib borayotganligi hisobiga yovvoyi holda o‘sayotgan dorivor o‘simliklarni sug‘orilib dehqonchilik qilinayotgan maydonlarda yetishtirish uchun introduksiya qilish hamda parvarishlash agrotexnologiyalarini ishlab chiqish orqali ulardan olinayotgan hosildorlikni oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Meksika bangidevonasi o‘simligini yetishtirishda maqbul meyordagi ma‘dan o‘g‘itlar, xususan azotli o‘g‘itlar bilan oziqlantirishni to‘g‘ri belgilash hamda oziqlantirish meyorlarini ishlab chiqish borasida izlanishlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda 1,2 ming turdagi dorivor o‘simliklarning 112 tasi farmasevtika sanoatida ishlatiladi. Tabiatda dorivor o‘simliklarning tarqalish areallari tobora qisqarib borayotganligi sababli ularni madaniy sharoitlarda ko‘paytirish, biomorfologik xususiyatlarini va kimyoviy tarkibini o‘rganish, introduksiya qilish hamda ilmiy asoslangan holda yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “O‘rmon fondi yerlarida dorivor o‘simliklar plantatsiyalari maydonlarini 4984 gektarga yetkazish”<sup>3</sup> belgilab berilgan. Shu jihatdan, Meksika bangidevonasi o‘simligini respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitlarida yetishtirish uchun introduksiya qilish, ekish muddatlari va meyorlarini hamda sug‘orish tartiblari va oziqlantirish meyorlarini to‘g‘ri belgilash bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901-son “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 20-maydagi PQ-251-son “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish

<sup>1</sup> [www.floruz.uz](http://www.floruz.uz)

<sup>2</sup> <https://xs.uz/uzkr/post/mamlakatimizda-12-ming-turdagi-dorivor-osimliklarning-112-tasi-farmatsevtika-sanoatida-ishlatiladi>

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.

va qayta ishlash hamda ulardan foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari va boshqa meyoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V."Qishloq xo'jaligi, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Meksika bangidevonasi o'simligining dorivorlik xususiyatlarini o'rganish, maqbul ekish muddati va meyorlari, sug'orish tartiblari hamda mineral o'g'itlar meyorlarini ishlab chiqish borasida AQSh, Germaniya, Fransiya, Hindiston, Ukraina malakatlarida G.Krimbiegel, O.Schieder, B.S.Sangwan-Norreel, M.Sunderland, G.B.Colling, J.M.Dunwell, J.Erowed, N.J.Robinzon kabi olimlar tomonidan keng qamrovli izlanishlar olib borilgan.

Dorivorlik xususiyatlari mavjud bo'lgan o'simliklarni respublikamiz sharoitida yetishtirish uchun introduksiya qilish va parvarishlash agrotexnologiyalarini ishlab chiqish orqali mahalliy sharoitimizdagi bioxilma-xillikni boyitish borasida yetakchi olimlar I.V.Belolipov, X.N.Atabayeva, B.Y.To'xtayev, Y.M.Murdaxayev, X.Q.Qarshiboyev, A.V.Mahmudov, U.I.Ruzmetov, R.Allaberdiyev, M.B.Qurbonaliyeva, M.R.Nasriddinova tomonidan o'rganilgan.

Meksika bangidevonasi o'simligi respublikamiz sharoitida introduksiya qilingan bo'lsada, sug'oriladigan maydonlarda yetishtirish uchun parvarishlashda qo'llaniladigan agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Bu muammoni hal qilish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqotlari Toshkent davlat agrar universitetining 2015-yil 17-fevral №6-sonli bayoni bilan tasdiqlangan "Bir maydondan bir yilda 2-3 xil qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan (2015-2018 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi:** Toshkent viloyati sharoitida Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) ning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va xom ashyolari tarkibidagi alkaloid miqdoriga azotli o'g'itlar hamda meyorlarining ta'sirini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

azotli o'g'itlarni turli shakl hamda meyorlarini qo'llashning Meksika bangidevonasi urug'larining unib chiqish dinamikasi, o'simlikni o'sishi, rivojlanishi va quruq massa to'plashiga ta'sirini aniqlash;

Meksika bangidevonasi o'simligi bargining tarkibidagi NPK miqdorlariga hamda barglarining soni, yuza maydoni, umumiy massasiga azotli o'g'itlarni shakl va meyorlarini ta'sirini aniqlash;

turli xil azotli o'g'itlarni shakl hamda meyorlarini qo'llashning barg, urug' hosildorligiga va tuproqning agrokimyoviy, agrofizikaviy xossalari ta'sirini aniqlash;

Meksika bangidevonasi o'simligini ildiz, poya, barg, guli, mevasi va urug'i tarkibidagi alkaloidlar miqdoriga azotli o'g'itlarni turli shakl hamda meyorlarini ta'sirini aniqlash.

Meksika bangidevonasi o'simligi parvarishida azotli o'g'itni turli shakl hamda meyorlarini qo'llashning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) o'simligi hamda azotli o'g'itlarning ammoniy nitrat ( $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ), karbamid ( $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ ), ammoniy sulfat ( $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ) kabi shakllari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib, Meksika bangidevonasi o'simligining o'sishi, rivojlanishi, azotli o'g'itni turli shakl hamda meyorlari, quruq massa to'plashi, barg yuza maydoni va uning shakllanishi, o'simliklarning bargi tarkibidagi oziqa moddalar miqdorlari, urug' va barg hosildorligi, vegetativ va generativ organlaridagi alkaloid, tuproqning hajm massasi, agrokimyoviy xossa xususiyatlari olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Dala tajribalarini joylashtirish, hisoblashlar va kuzatuvlar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2007), tuproq va o'simliklardagi tahlillar "Методы агрофизических исследований" (1973), "Методы агрохимических анализов почв и растений" (1977) uslubiy qo'llanmalari asosida olib borilib, natijalarni statistik tahlili Microsoft Excel dasturi va B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" (1985) uslubiy qo'llanmasi hamda iqtisodiy samaradorlik N.A.Baranov usuli asosida amalga oshirilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

Ilk bor Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida Meksika bangidevonasi o'simligini parvarishlashda azotli o'g'itlarning 120 kg/ga, ya'ni ammoniy nitrat ( $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ), karbamid ( $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ ), va ammoniy sulfat ( $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ )larning mineral o'g'itlar  $\text{P}_{90}\text{K}_{90}$  kg/ga meyorlari qo'llanilgan fonida qo'llashning maqbul shakl va meyorlari aniqlangan;

Meksika bangidevonasidan eng yuqori barg va urug' hosildorligi uni fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $\text{N}_{120}\text{P}_{90}\text{K}_{90}$  kg/ga meyorlari qo'llanilganda ammoniy sulfat shaklidagi azotli o'g'it qo'llanilishi bargdan 10,83 s/ga hosil olinib, bunda qo'shimcha hosil nazoratga nisbatan 3,96; ammoniy nitrat o'g'itiga nisbatan 0,59 s/ga, urug'dan esa 17,4 s/ga hosil olinishi isbotlangan;

Meksika bangidevonasining vegetativ va generativ organlari tarkibida alkaloidlar miqdori yuqori ko'rsatkichi  $\text{N}_{120}\text{P}_{90}\text{K}_{90}$  kg/ga meyorlari qo'llanilganda olinib, o'simlikning ildizi tarkibida 0,39 %, poyasida 0,26 %, bargida 0,42 %, gulida 0,77 %, mevasida 0,96 %, urug'ida 0,99 % alkaloidlar mavjudligi aniqlangan;

Meksika bangidevonasini parvarishlashda fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $\text{P}_{90}\text{K}_{90}$  kg/ga meyorlari qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlardan ammoniy sulfatni ( $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ) 120-150 kg/ga meyorlarda qo'llanilishi tuproqning agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalarni maqbul holda saqlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatib, o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan tuproq hajm massasini 0,012-0,013 g/sm<sup>3</sup> ga yaxshilab, gumus miqdorini 0,078-0,082 %ga, umumiy azot miqdorini 0,019-0,023 %ga, harakatchan fosfor miqdorini 0,024-0,033 %ga yuqori bo'lishi aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) o'simligini parvarishlashda qo'llanilgan mineral o'g'itlar meyorlari va turlari o'simlikning o'sishi va

rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatib, o'simlikning bo'yi o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan 12,3-62,9 sm.ga, hosil shoxlari soni 2,9-10,7 donaga, mevalar soni 4,0-20,0 donaga, mevalar og'irligi 8,3-490 g.ga yuqori bo'lishini ta'minlagan;

mineral o'g'itlarning  $P_{90}K_{90}$  kg/ga meyorlari qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlarning 120 kg/ga meyorda qo'llanilishi Meksika bangidevonasining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatib, o'simlikning bo'yi 12,3-62,9 sm.ga, bir dona o'simlikdagi barglar soni 2,9-10,7 donaga, mevalar soni 4,0-20,0 donaga yuqori bo'lishi tasdiqlangan;

Meksika bangidevonasi o'simligining barglari soni, yuzasi va vazni bo'yicha nisbatan yuqori ko'rsatkichlar mineral o'g'itlarning  $P_{90}K_{90}$  kg/ga meyori qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlarning 120-150 kg/ga meyorlarda qo'llanilgan variantlarda kuzatilib, bir dona o'simlikda hosil bo'lgan barglar soni o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan 24,3-32,7 donaga, bitta o'simlikdagi barg yuzasi 1110,1  $sm^2$  ga, bargning quruq massasi 7,9-12,4 g.ga yuqori bo'lganligi aniqlangan;

o'simlikning bargi tarkibidagi NPK miqdorlarini o'zgarishiga qo'llanilgan mineral o'g'itlar meyorlari va turlari o'zining ta'sirini ko'rsatib, fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $P_{90}K_{90}$  kg/ga meyorlari fonida azotli o'g'itlarning 120-150 kg/ga meyorlarda qo'llanilishi bargning tarkibidagi azot miqdorini 2,44-2,69 %, fosfor miqdorini 0,50-0,55 %, kaliy miqdorini esa 2,60-2,74 %ni tashkil etganligi aniqlangan;

fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $P_{90}K_{90}$  kg/ga meyori qo'llanilgan fonlarda azotli o'g'itlarning 120-150 kg/ga meyorlarda qo'llanilishi Meksika bangidevonasining hosildorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatib, o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan barg hosilini 2,93-3,96 s/ga, urug' hosilini 5,7-7,7 s/ga yuqori bo'lishini ta'minlagan;

Meksika bangidevonasining ildizi tarkibida 0,39 %, poyasida 0,26 %, bargida 0,42 %, gulida 0,77 %, mevasida 0,96 %, urug'ida 0,99 % alkaloidlar mavjudligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining dala va laboratoriya usullaridan foydalanilgan holda matematik-statistik ishlovdan o'tkazilganligi hamda olingan nazariy natijalarni amaliy ma'lumotlarda tasdiqlanganligi, tajriba natijalarining mahalliy va chet el ilmiy tadqiqotlari bilan taqqoslanganligi, olingan ma'lumotlar mutaxassislar tomonidan ijobiy baholanganligi va tadqiqot natijalarining ishlab chiqarish sharoitida keng joriy etilganligi, Respublika va Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruzalar qilinganligi, ilmiy nashrlarda ilmiy maqolalar chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida Meksika bangidevonasini parvarishlashda fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $P_{90}K_{90}$  kg/ga meyori qo'llanilgan fonida ammoniy sulfat shaklidagi azotli o'g'itni gektariga 120 kg/ga meyorda qo'llanilishi o'simlikning o'sishi, va rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishi hisobiga dorivorlik xususiyati (alkaloidlar) maqbul meyorda bo'lgan quruq barg va urug' hosili olish mumkinligini ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida Meksika bangidevonasini parvarishlashda fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $P_{90}K_{90}$  kg/ga meyori qo'llanilgan fonida azotli o'g'itning ammoniy

sulfat shaklini gektariga 120 kg/ga meyorda qo'llanilishi hisobiga dorivorlik xususiyati maqbul meyorda bo'lgan quruq barg va urug' hosili olinib, yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilganligi va olingan natijalarni amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Meksika bangidevonasi o'simligini parvarishlashda qo'llanilgan mineral o'g'itlar meyorlari va shakllarining samaradorligini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

dorivor Meksika bangidevonasi o'simligini yetishtiruvchilar uchun "Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) o'simligini yetishtirishda mineral o'g'itlar qo'llash bo'yicha tavsiyalar" tasdiqlangan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 27-sentabrdagi №21-05/4949-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma bugungi kunda Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) o'simligini yetishtirishda farmasevtika sohasida va qishloq xo'jaligi xodimlariga qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda.

Meksika bangidevonasi o'simligini parvarishlashda azotli o'g'itlardan ammoniy nitrat ( $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ), karbamid ( $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ ) va ammoniy sulfat ( $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ )larning mineral o'g'itlar  $\text{P}_{90}\text{K}_{90}$  kg/ga meyorlari qo'llanilgan fonida qo'llashning maqbul shakl va meyorlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filialining Yangiyo'l tumanidagi tajriba xo'jaligida 3,0 ga, Toshkent davlat agrar universitetining Qibray tumanidagi tajriba xo'jaligida 0,30 ga, Parkent tumani "PARKENT FARANGIZ" MCHJda 0,10 ga va Yangiyo'l tumani "Muxtorxo'ja nabiralari" fermer xo'jaligida 0,30 ga, "Jamol ota-chorva nasl" fermer xo'jaligida 0,30 ga jami bo'lib 4,0 ga maydonda joriy etgan. Unga ko'ra Meksika bangidevonasidan eng yuqori barg va urug' hosildorligi uni fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $\text{P}_{90}\text{K}_{90}$  kg/ga meyori qo'llanilgan fonida ammoniy sulfat shaklidagi azotli o'g'itning 120 kg/ga meyorida qo'llanilishi bargdan 10,83 s/ga hosil olingan, bunda qo'shimcha hosil nazoratga nisbatan 3,96 %ni; fonga nisbatan 1,42 %ni; karbamid o'g'itiga nisbatan 0,30 %ni; ammoniy nitrat o'g'itiga nisbatan 0,59 s/ga, urug'dan esa 17,4 s/ga hosil olingan, qo'shimcha hosil mos ravishda 7,7; 2,7; 0,94 1,4 s/ga.ni tashkil etgan. Eng yuqori iqtisodiy samaradorlik bangidevonani  $\text{P}_{90}\text{K}_{90}$  kg/ga ma'dan o'g'itlar fonida ammoniy sulfatni gektariga 120 kg meyorda qo'llaganda olinib, shartli sof foyda jami 53 900 ming so'm/ga.ni, rentabellik darajasi esa 72,7 %ni tashkil etgan. (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 27-sentabrdagi №21-05/4949-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, farmasevtika sanoati talabiga mos keladigan 9,8-10,5 s/ga dorivorlik xususiyati yuqori bo'lgan quruq barg hamda 16,7-17,4 s/ga urug' hosili yetishtirilgan;

Natijada Meksika bangidevonasini urug' va bargi hosildorligi bo'yicha olingan ma'lumotlar iqtisodiy samaradorligi hisoblanganda ishlab chiqarish xarajatlari qo'shimcha yetishtirilgan hosilni miqdori yuqori bo'lganligi uchun barg hosili yetishtirishdagi ishlab chiqarish xarajatlaridan 0,52-0,55 %ga yuqori bo'lgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dala va laboratoriya sharoitlarida o'tkazilgan tajribalar O'zbekiston Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan tuzilgan maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan, hisobotlar ToshDAUning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda 4 marta ma'ruza qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy maqolalar va 1 ta tavsiyanoma chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida respublikada va xorijda o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari obyekt va predmetlari batafsil tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyada ijobiy baholanganligi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill)ning sestematikasi, dorivorlik xususiyatlari, tabiiy tarqalish areallari va xalq xo'jaligidagi ahamiyati bo'yicha adabiyotlar sharhi** deb nomlangan birinchi bobida, mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotlar maqsadidan kelib chiqib, Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill)ning sistematikasi, botanik tasnifi, xalq xo'jaligidagi ahamiyati, tabiiy tarqalish areallari parvarishlashda o'simlikni quruq massa to'plashi, barg yuza maydoni va uning shakllanishi, o'simliklarning bargi tarkibidagi oziqa moddalar miqdorlari, urug' va barg hosildorligi, tuproqning hajm massasi, agrokimyoviy xossa xususiyatlari, o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini yaxshilashdagi ahamiyati batafsil bayon etilgan. Adabiyotlar tahlilining so'ngida tadqiqotlarning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill)ni azotli o'g'itni turli shakl hamda meyorlarini hisobga olgan holda o'g'itlash meyorlarini to'g'ri belgilash orqali yuqori va sifatli hosil olish hisobiga yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish yuzasidan olingan natija, xulosa va fikrlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **"Tadqiqot o'tkazish sharoitlari va uslublari"** deb nomlangan ikkinchi bobida, dala tajribalari o'tkazilgan mintaqaning geografik o'rni, hududning tuproq-iqlim sharoitlari, tadqiqot uslublari va biometrik kuzatuv hamda o'lchovlarni o'tkazish, shuningdek yetishtirishda qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar keltirib o'tilgan.

Dala tajribalari Toshkent viloyati, Qibray tumanida joylashgan Toshkent davlat agrar universitetini o'quv tajriba xo'jaligining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida olib borilgan bo'lib, dala tajribasi maydoni tuprog'ining mexanik tarkibi o'rtacha qumoq, sizot suvlari 15-18 metr chuqurlikda joylashgan, sho'rlanmagan. Azot va kaliy bilan kam, fosfor bilan o'rtacha darajada ta'minlangan.

Dala tajribasi 14 variantdan tashkil topgan bo'lib, tajriba 3 takrorlanishda, 1 ta yarusda joylashtirilgan. Har bir variantning umumiy egallagan maydoni 140 m<sup>2</sup>, shundan hisobli qatorlar maydoni 70 m<sup>2</sup>ni tashkil etgan. Tajribaning umumiy egallagan maydoni 0,588 gektar tashkil etgan.

Tadqiqotlar o'tkazilgan dala tuprog'ining dastlabki agrokimyoviy tarkibini aniqlash maqsadida tajriba qo'yishdan oldin tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlaridan diagonal bo'yicha 5 nuqtadan tahlil uchun tuproq namunalari olindi.

Tajriba dalasi tuprog'ining dastlabki tahlil natijalariga ko'ra, uning 0-30 sm qatlamidagi gumus miqdori 1,150 foizni tashkil etgan bo'lsa, umumiy azot miqdori 0,130 foizni, umumiy fosfor miqdori 0,148 foizni tashkil etgan. Tajriba dalasi tuprog'ining haydov osti 30-50 sm qatlamidagi gumus miqdori 0,945 foiz, umumiy azot miqdori 0,096 foiz, umumiy fosfor miqdori 0,117 foiz bo'lganligi aniqlangan. Tuproq tarkibidagi oziqa elementlarining harakatchan shakllari tahlil natijalariga ko'ra, uning haydov (0-30 sm) qatlamida nitratli azot miqdori 24,8 mg/kg.ni, haydov osti (30-50 sm) qatlamida 19,3 mg/kg, harakatchan fosfor miqdori tuproqning 0-30 sm qatlamida 31,5 mg/kg.ni, 30-50 sm qatlamida 24,6 mg/kg bo'lganligi aniqlangan. Almashinuvchi kaliy miqdori esa tuproqning 0-30 sm qatlamida 188 mg/kg.ni, 30-50 sm qatlamida esa 170 mg/kg.ni tashkil etganligi aniqlangan.

Bundan ko'rinib turibdiki, dala tajribalari o'tkazilgan Toshkent davlat agrar universiteti kichik o'quv tajriba uchastkasining tipik bo'z tuproqlari klassifikatsiya bo'yicha azot bilan kam, fosfor bilan o'rta, almashinuvchi kaliy bilan esa kam darajada ta'minlangan.

Tadqiqotda Meksika bangidevonasi o'simligini parvarishlashda karbamid (N – 46 %), ammoniy nitrat (N – 34 %), ammoniy sulfat (N – 21 %), ammosfos (N – 11-12 %, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> – 46 %), kaliy (K<sub>2</sub>O – 60 %) kabi mineral o'g'itlardan foydalanilgan.

Tadqiqotlarda mineral o'g'itlar turlari va meyorlarining qo'llanilishi tuproqning agrofizikaviy xossalardan hajm massasi, g'ovakligi, agrokimyoviy xususiyatlaridan esa gumus, azot, fosfor hamda oziqa elementlarini harakatchan shakllarini o'zgarishiga ta'siri o'rganilgan.

Natijada Meksika bangidevonasini parvarishlashda fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga meyor qo'llanilgan fonlarda ammoniy sulfat [(NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> – 20,5 % N], karbamid (CO(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub> – 46 % N) va ammoniy nitrat (NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub> – 34,6 % N) kabi azotli o'g'itlarning 60, 90, 120, 150 kg/ga meyorlarini tuproqning hajm massasiga ta'siri aniqlangan.

Olingan ma'lumotlarda, Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida Meksika bangidevonasini parvarish qilishda azotli o'g'itlarni turli shakl va meyorlarda qo'llash tuproq hajm massasini dastlabki miqdorga nisbatan kamaytirgan bo'lsada, biroq nisbatan yuqori ko'rsatkich ammoniy sulfat o'g'itini gektariga 120-150 kg/ga qo'llanilganda kuzatilib, o'g'itsiz, nazorat variantga nisbatan 0,012-0,013 g/sm<sup>3</sup> ga kamroq zichlanganligi aniqlangan.

Tuproqning g'ovakligi uning hajm massasiga teskari proporsional bo'lib, hajm massasi kamaygan sari g'ovakligi ortib borgan.

Meksika bangidevonasini parvarish qilishda azotli o'g'itlarni turli shakl va meyorlarda qo'llash tuproq g'ovakligini dastlabki miqdorga nisbatan kamaytirgan, ammo nisbatan yuqori ko'rsatkich ammoniy sulfat o'g'itini gektariga 120-150 kg/ga

qo'llanilganda kuzatilib, o'g'itsiz, nazorat variantga nisbatan tuproqning g'ovakligi 0,05-0,06 %ga yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Meksika bangidevonasini parvarishlashda amal davri oxirida barcha variantlarda tuproqdagi gumus, umumiy azot va harakatchan fosfor miqdorlari dastlabki miqdorga nisbatan kamaygan bo'lsada, fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $P_{90}K_{90}$  kg/ga meyori qo'llanilgan fonida ammoniy sulfat azotli o'g'itini 120-150 kg meyorda qo'llanilishi gumus miqdorini o'g'itsiz, nazorat variantga nisbatan 0,069-0,082 %ga, umumiy azot miqdorini 0,019-0,023 %ga, umumiy fosfor miqdorini 0,024-0,033 %ga, karbamid o'g'itini 120-150 kg meyorda qo'llanilishi tegishli ravishda 0,079-0,081 %; 0,017-0,021 %; 0,026-0,32 %ga, ammoniy nitrat o'g'itini 120-150 kg meyorda qo'llanilishi esa 0,078-0,080 %, 0,015-0,019 %, 0,024-0,031 %ga yuqori bo'lishi ta'minlangan.

Dissertatsiyaning **"Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill)ning unib chiqishi, o'sishi va rivojlanishi"** deb nomlangan uchinchi bobida nihollarining laboratoriya va dala sharoitida unib chiqish darajasi va haqiqiy ko'chat qalinliklari, o'simlikning bo'yi, hosil shoxlari soni, mevalar soni, mevalar og'irligi, azotli o'g'itlarni shakl va meyorlarini ta'siri aniqlanganligi bayon qilingan.

Tajribalarda Meksika bangidevonasi o'simligini parvarishlashda qo'llaniladigan azotli o'g'itlarning turlari urug'larni dala sharoitidagi unuvchanligi va ko'chat qalinliklariga ta'sir etganligi aniqlangan. Tadqiqotlar o'tkazilgan tipik bo'z tuproqlar sharoitida urug'lar 2015-yil 13-aprelda, 2016-yil 15-aprelda va 2017-yil 18-aprelda ekilgan. Oradan 6-7 kun o'tgach nihollarning unib chiqish ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha kuzatuvlar boshlanib, har ikki kunda davom ettirilgan. 2015-yildagi tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, Meksika bangidevonasi o'simligida fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $P_2O_5-90$ ,  $K_2O-90$  kg/ga meyori qo'llanilgan fonida  $(NH_4)_2SO_4$  (Ammoniy sulfat) azotli o'g'itlarning turli meyorlarda qo'llanilgan variantlarda kuzatuvni birinchi muddatida (19.04) 22,8-23,5 % nihollarning unib chiqqanligi aniqlangan bo'lsa, 21-aprelda bu ko'rsatkichlar 38,9-40 %ga to'g'ri kelganligi aniqlangan. Kuzatuvning uchinchi muddatida (23.04) urug'larning dala sharoitidagi unuvchanligi 56,7-58,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, kuzatuvning to'rtinchi muddatida (25.04) 76,4-77,3 % nihollar unib chiqqanligi aniqlangan. Mazkur  $(NH_4)_2SO_4$  (Ammoniy sulfat) azotli o'g'iti qo'llanilgan variantlarda urug'larning unuvchanligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich N-120,  $P_2O_5-90$ ,  $K_2O-90$  kg/ga o'g'it meyori qo'llanilgan variantda kuzatilib, kuzatuvning 1-muddatida 23,5 %ni, ikkinchi muddatida 40,2 %ni, uchinchi muddatida 58,5 %ni, to'rtinchi muddatida 77,3 %ni tashkil etganligi aniqlangan. Demak, fosforli va kaliyli o'g'itlar fonida  $(NH_4)_2SO_4$  (Ammoniy sulfat) azotli o'g'itining maqbul meyorda qo'llanilishi urug'larning dala sharoitidagi unuvchanligini o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan 4,1 %ga yuqori bo'lishini ta'minlanganligi aniqlangan.

Fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $P_2O_5-90$ ,  $K_2O-90$  kg/ga meyori qo'llanilgan fonida  $CO(NH_2)_2$  (Karbamid) azotli o'g'itini turli meyorlari qo'llanilgan variantlarda kuzatuvni 1-muddatida (19.04) 22,6-23,4 %ni nihollarning unib chiqqanligi aniqlangan bo'lsa, 21-aprelda ushbu ko'rsatkichlar 39,1-39,8 %ga to'g'ri kelganligi aniqlangan. Kuzatuvning uchinchi muddatida (23.04) urug'larning dala sharoitidagi unuvchanligi 57,3-59,1 %ni tashkil etgan bo'lsa, kuzatuvning to'rtinchi muddatida (25.04) 77,1-77,7 % nihollar unib chiqqanligi aniqlangan. Mazkur  $CO(NH_2)_2$  (Karbamid) azotli

o'g'iti qo'llanilgan variantlarda ham urug'larning unuvchanligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich N-120, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>-90, K<sub>2</sub>O-90 kg/ga o'g'it meyor qo'llanilgan variantda kuzatilib, kuzatuvning birinchi muddatida 23,4 %ni, ikkinchi muddatida 39,8 %ni, uchinchi muddatida 59,1 %ni, to'rtinchi muddatida 77,7 %ni tashkil etganligi aniqlangan. Demak, fosforli va kaliyli o'g'itlar fonida CO(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub> (Karbamid) azotli o'g'itining maqbul meyorda qo'llanilishi urug'larning dala sharoitidagi unuvchanligini o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan 4,0 %ga yuqori bo'lishi isbotlangan.

Dissertatsiyaning **Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill)ning hosildorligiga azotli o'g'itlarni shakllari va meyorlarining ta'siri** deb nomlangan to'rtinchi bobida Meksika (*Datura innoxia* Mill) bangidevonasida bargining shakllanishi, bitta o'simlikdagi barglar soni, bitta o'simlikdagi barg yuzasi, barglarning ho'l va quruq vazni hamda o'sha barglarning tarkibidagi NPK miqdorlariga shuningdek barg va urug' hosildorliklariga azotli o'g'itlarni shakl va meyorlarini qo'llashning ta'siri aniqlanganligi bayon qilingan.

Tadqiqotlarda Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) o'simligida barglarning shakllanishi va uning tarkibidagi NPK miqdorlariga ammoniy nitrat (NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub> – 34,6 % N), ammoniy sulfat [(NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> – 20,5 % N] va karbamid (CO(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub> – 46 % N) kabi azotli o'g'itlarining 60, 90, 120, 150 kg/ga meyorlari fosforli hamda kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga meyor qo'llanilgan fonida sinab ko'rilgan.

Tadqiqotdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2015-yilda fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga meyor qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlardan ammoniy sulfatning 60, 90, 120, 150 kg/ga meyorlarda qo'llanilishi bir dona o'simlikdagi barglar sonini 81,5-95,9 donagacha bo'lishini ta'minlab, o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan 17,3-31,7 donaga ko'p bo'lganligi aniqlangan. Fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga meyorini o'zi qo'llanilgan variantda esa bir dona o'simlikdagi barglar soni 73,0 donani tashkil etgan.

Fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga meyor qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlardan karbamid (CO(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub> – 46 % N)ning 60, 90, 120, 150 kg/ga meyorlarda qo'llanilishi esa bir dona o'simlikdagi barglar sonini 77,7-93,6 donagacha bo'lishini ta'minlab, o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan 13,5-29,4 donaga ko'p bo'lishi isbotlangan.

Azotli o'g'itlardan ammoniy nitrat (NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub>)ning 60, 90, 120, 150 kg/ga meyorlari qo'llanilganda bir dona o'simlikdagi barglar soni 77,5-91,8 donani tashkil etib, o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan 13,3-27,6 donaga ko'p bo'lishi aniqlangan.

Bir dona o'simlikdagi hosil bo'lgan barglarning quruq vazni aniqlanganda eng yuqori ko'rsatkichlar azotli o'g'itlardan ammoniy sulfatning 120 kg/ga meyor qo'llanilgan variantda kuzatilib, 32,3 g.ni tashkil etgan bo'lsa, o'g'itsiz nazorat variantida ushbu ko'rsatkich 20,5 g, fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga meyorini o'zi qo'llanilgan fonida esa 23,0 g bo'lganligi aniqlangan. Mazkur fonida ammoniy sulfat o'g'itining 90, 120 kg/ga meyorlari qo'llanilgan variantlarda bir dona o'simlikda hosil bo'lgan barglarning umumiy quruq vazni 27,2-32,3 g.ni tashkil etgan.

Karbamid o'g'iti ( $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$  – 46 % N)ning 60, 90, 120, 150 kg/ga meyorlari qo'llanilgan variantlarda bir dona o'simlikdagi hosil bo'lgan barglarning quruq vazni 24,8-31,6 g.ni tashkil etgan. Ushbu azotli o'g'it fonida ham eng yuqori ko'rsatkichlar 120 kg/ga miqdorida karbamid o'g'iti qo'llanilgan variantda kuzatilib, o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan 11,1 g.ga yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Ammoniy nitrat o'g'iti ( $\text{NH}_4\text{NO}_3$  – 34,6 % N)ning 60, 90, 120, 150 kg/ga meyorlari qo'llanilgan variantlarda bir dona o'simlikdagi hosil bo'lgan barglarning quruq vazni 23,7-29,4 g.ni tashkil etgan. Ushbu azotli o'g'it fonida eng yuqori ko'rsatkichlar 120 kg/ga miqdorida ammoniy nitrat o'g'iti qo'llanilgan variantda kuzatilib, o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan 8,9 g.ga yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Olingan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, Meksika bangidevonasini Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida yetishtirishda qo'llaniladigan azotli o'g'itlarni shakllari o'simlikning barglar soni, barg yuza maydoni, barg vazni va quruq barg vazniga bevosita ta'siri aniqlanib, ma'dan o'g'itlarning  $\text{P}_{90}\text{K}_{90}$  kg/ga meyori fonida azotli o'g'itlardan ammoniy sulfat ( $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ) 120 kg/ga meyorida qo'llanilganda o'simlikdagi barglar soni nazoratga nisbatan 32,7-35,4 donaga, karbamid o'g'iti qo'llanilganga nisbatan 2,2-2,7 donaga, ammoniy nitrat o'g'iti qo'llanilganga nisbatan 4,7-5,1 donaga, barg yuza maydoni tegishli ravishda 1362,0-1387,1  $\text{sm}^2$ ; 44,6-49,3  $\text{sm}^2$ ; 84,5-88,3  $\text{sm}^2$ ; barglarning vazni 61,9-72,4 g; 9,0-9,7 g; 16,0-17,6 g; quruq holdagi barglarning vazni esa 12,4-13,7; 1,8-2,2; 3,3-3,5 g.ga yuqori bo'lishi aniqlangan.

Undan tashqari mineral o'g'itlar turlari va meyorlarining Meksika bangidevonasi barglarining tarkibidagi NPK miqdorlariga ta'sir etganligi ham aniqlangan.


Tadqiqotda olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2015-yilda o'simlikdagi shakllangan barglar tarkibidagi NPK miqdorlari tahlil qilinganda, fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $\text{P}_{90}\text{K}_{90}$  kg/ga meyori qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlardan ammoniy sulfatning 60, 90, 120, 150 kg/ga meyorlarda qo'llanilishi barg tarkibidagi azot miqdorini 1,99-2,69 %, fosfor miqdorini 0,45-0,55 %, kaliy miqdorini esa 2,48-2,74 % bo'lishi ta'minlangan. O'g'itsiz nazorat variantida esa o'simlik bargidagi azot miqdori 1,93 %, fosfor miqdori 0,35 %, kaliy miqdori 1,99 % bo'lganligi aniqlangan. Fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $\text{P}_{90}\text{K}_{90}$  kg/ga meyorini o'zi qo'llanilgan variantda esa ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 1,99; 0,41; 2,21 foizni tashkil etgan.

Fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $\text{P}_{90}\text{K}_{90}$  kg/ga meyori qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlardan karbamid ( $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$  – 46 % N)ning 60, 90, 120, 150 kg/ga meyorlarda qo'llanilishi barg tarkibidagi azot miqdorini 2,20-2,59 %, fosfor miqdorini 0,42-0,54 %, kaliy miqdorini esa 2,45-2,72 % bo'lganligi aniqlangan.

Azotli o'g'itlardan ammoniy nitrat ( $\text{NH}_4\text{NO}_3$ )ning 60, 90, 120, 150 kg/ga meyorlari qo'llanilganda barg tarkibidagi azot miqdori 2,18-2,57 %, fosfor miqdori 0,42-0,53 %, kaliy miqdori 2,45-2,71 foizni tashkil etgan.

2016-yilda olingan ma'lumotlarga ko'ra, o'simlikdagi shakllangan barglar tarkibidagi NPK miqdorlari taxlil qilinganda, fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $\text{P}_{90}\text{K}_{90}$  kg/ga meyori qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlardan ammoniy sulfatning 60, 90, 120, 150 kg/ga meyorlarda qo'llanilishi barg tarkibidagi azot miqdorini 2,32-2,73 %, fosfor miqdorini 0,48-0,60 %, kaliy miqdorini esa 2,51-2,79 % bo'lishi ta'minlangan.

O'g'itsiz nazorat variantida esa o'simlik bargidagi azot miqdori 1,98 %, fosfor miqdori 0,39 %, kaliy miqdori 2,01 % bo'lganligi aniqlangan. Fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga meyorini o'zi qo'llanilgan variantda esa ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 2,02; 0,43; 2,25 foizni tashkil etganligi kuzatilgan.



**1-rasm. Barglar tarkibidagi oziqa moddalar miqdorlari, 100 g. quritilgan bargda, %. 2017-yil**


Fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga meyorini qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlardan karbamid (CO(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub> – 46 % N)ning 60, 90, 120, 150 kg/ga meyorlarda qo'llanilishi barg tarkibidagi azot miqdorini 2,24-2,65 %, fosfor miqdorini 0,46-0,59 %, kaliy miqdorini esa 2,49-2,76 % bo'lganligi aniqlangan.

Azotli o'g'itlardan ammoniy nitrat (NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub>)ning 60, 90, 120, 150 kg/ga meyorlari qo'llanilganda barg tarkibidagi azot miqdori 2,21-2,61 %, fosfor miqdori 0,45-0,57 %, kaliy miqdori 2,48-2,75 foizni tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, Meksika bangidevonasini parvarishlashda azotli o'g'itlarni shakllaridan qat'iy nazar ularni meyorini P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga fonida N<sub>60</sub> kg/ga.dan N<sub>150</sub> kg/ga.gacha oshirib borilishi barglardagi azot miqdorini 0,07 %dan 0,25 %gacha, fosfor miqdorini 0,01 %dan 0,06 %gacha, kaliy miqdorini 0,04 %dan 0,21 %gacha bo'lishi ta'minlangan. Bangidevona bargida NPK miqdorlarini nisbatan ko'p miqdorda bo'lishi ammoniy sulfat o'g'itini qo'llaganda aniqlanib, bunda karbamid o'g'iti qo'llanilganga nisbatan azot miqdori 0,05-0,12 %ga, fosfor miqdori 0,02-0,03 %ga, kaliy miqdori 0,03-0,05 %ga, ammoniy nitrat o'g'iti qo'llanilganga nisbatan esa tegishli ravishda 0,14-0,6 %; 0,01-0,04 %; 0,05-0,11 %ga yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Ma'lumki, ekinlarni yaxshi o'sishi, rivojlanishi, hosil elementlarining shakllanishi va hosildorligiga tashqi muhit omillari hamda ularni parvarishlashda qo'llanilayotgan har bir agrotexnik tadbirlar o'zining ta'sirini ko'rsatmasdan

qolmaydi. Tadqiqotlarimizda Meksika bangidevonasining barg va urug' hosiliga qo'llanilayotgan mineral o'g'itlar meyorlari va shakllari ham ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan.



